**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Ro‘yxatga olindi:
№ ____________________
“___” _______2019 yil

Samarqand davlat universiteti
rektori:
__________R.I.Xalmuradov
2019__yil “___”____________

# JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI FANINING

# F A N  D A S T U R I

**Bilim sohasi:** 600000 – Xizmatlar

**Ta’lim sohasi:** 610000 – Xizmat ko’rsatish

**Ta’lim yo’nalishi:** 5610500 – Sport faoliyati (faoliyati turlar boyicha)

**SAMARQAND – 2019**

Fan dasturi Samarqand davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (201_ yil “___” _________dagi “___” -sonli bayonnoma).

**Fakultet dekani:** **dots. B.B.Kipchakov**

**Fan dasturi samarqand davlat universitetida ishlab chiqildi.**

**Tuzuvchilar:**

| | | |
|---|---|---|
| **N.Q.Mamadiyorov** | **-** | «Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi» kafedrasi o’qituvchisi |
| **U.S.Do’sanov** | **-** | «Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi» kafedrasi dotsenti. |

**Taqrizchilar:**

| | |
|---|---|
| **J.E.Eshnazarov** | «Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi» kafedrasi professori |
| **Y.M. Masharipov** | «Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi» kafedrasi dotsenti. |

Fanning dasturi Samarqand davlat universiteti o‘quv-uslubiy kengashining 2019 yil “___”________dagi “____”-son majlis bayoni bilan ma’qullangan.

**O‘quv uslubiy Kengash raisi:** **prof.A.S.Soliyev**

## I. O'quv fanining dolzarbligi va oily kasbiy ta'limdagi o'rni

Bugungi kun yosh avlodlariga ta'lim-tarbiya berishga yangicha, yana ham keng ko'lamda yondashishni talab qiladi. Bu maqsadni amalga oshirishga mo'ljallangan fanlardan biri "Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi" hisoblanadi.

Mazkur fanga oid bilimlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida, jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohasida nufuzi ortayotganligi yaqqol ko'rinib turibdi. Bu esa tegishli ilmiy - uslubiy hujjatlarning, sportchilar, o'qituvchi - murabbiylar, umuman, sport sohasidagi mutaxassislarning faoliyatini yanada takomillashtirishga yaqindan yordam beradigan darajada tayyorlashni taqozo qilmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, jismoniy tarbiya yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalari jismoniy tarbiya va sport pedagogikasiga oid ilmiy bilimlarni o'rganishlari, ularga ushbu fanni puxta egallashlariga ko'mak berish maqsadida mazkur o'quv dasturi shlab chiqildi.

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasining ta'lim-tarbiya sohasidagi maqsad va vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishda, jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda xizmat qiladi.

## II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarning umumjismoniy va maxsus pedagogik bilimlar bilan qurollantirish, trener, jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasb mahoratini oshirish.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan doirasida talabalar ta'lim-tarbiya sohasidagi maqsad va vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishda nazariy bilimlarni egallashlari lozim.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va valakalariga qo'yidagi talablar qo'yiladi. *Talaba:*

- umumjismoniy va maxsus pedagogik bilimlar, jismoniy tarbiya va sport pedagogikasiga oid ilmiy bilimlar haqidagi *tassavurga ega bo'lishi;*
- ta'lim-tarbiya sohasidagi maqsad va vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishda zarur yo'llarni *bilislii va ulardan foydalana olishi;*
- bo'Iajak jismoniy tarbiya mutaxassislarini va sport turlari bo'yicha trenerlar uchun zarur pedagogik bilim va *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

## III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) 1-ModuI. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi asoslari

### 1-mavzu. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasining umumiy asoslari

Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasining predmeti. Sport pedagogikasini paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi. Shaxsni shakllantirish jarayonida sport

pedagogikasining ahamiyati. Sport pedagogikasini fanining metodologiyasi. Jismoniy tarbiya maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Jismoniy rivojlanish. Jismoniy tarbiya jarayonida sportchi shaxsning shakllanishi.

2-mavzu. Shaxs shakillanishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati

Shaxs shakillanishida jismoniy tarbiya va sportning o'ziga xos ahamiyati. Jismoniy tarbiya va sportning shaxs shakillanishiga ta'siri. Rivojlanish tushunchasi, odamning rivojlanishi, jismoniy va psixik rivojlantirish, ularning birligi va xususiyatlari. Tarbiya jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olish. Rivojlanishning individual xususiyatlari va uni jismoniy tarbiya hamda sport faoliyatida hisobga olish. Yosh sportsmenlarning tarbiyalash shakllari: individual, guruhiy vajamoaviy.

3-mavzu. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari faoliyatining pedagogik jihatlari

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi va sport pedagogi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. Sport pedagogiga qo'yiladigan talablar. Jismoniy tarbiya va sport sohasi pedagogining kommunikativ va tashkilotchlik qobiliyati. Jismoniy tarbiya va sport sohasi pedagogining tolerantliligi va uni faoliyat olib borishidagi ahamiyati. Sportga oid o'zaro munosabatlarda nizolar tushunchasi, sport faoliyatida yuzaga keladigan nizolar tasnifi, sabablari, shart - sharoitlari hamda ularni oldini olish va bartaraf etish yo'llari.

4-mavzu. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ta'lim tamoyillari

Sport faoliyatida ta'lim tamoyillari. Jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga oid mashg'ulotlarni o'tkazishda o'qitish tamoyillarining nazariy va amaliy ahamiyati.Ta'limning o'quvchilarni yoshiga ongiga mos bo'lishi. Bilim, ko'nikma, malakalarni egallashning ahamiyati va didaktik qonuniyatlarning o'zaro bog'liqligi. Kundalik mashg'ulotlarda tarbiyalanuvchining yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish.

5- mavzu. Jismoniy tarbiya va sport sohasida qo'Ilaniladigan ta'lim metodlari

Jismoniy tarbiya va sport sohasida qo'Ilaniladigan ta'lim metodlari. O'qitish nazariyasida metod va metodik usul tushunchasi va uning jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga doir mashqlarni bajarishdagi ahamiyati. O'qitish metodlarining klassifikatsiyasi. Jismoniy tarbiya darslarini' tashkillashtirishda yordamchi va zaruriy vositalar.

2-Modul. Jismoniy tarbiya asoslari

### 6- mavzu. Tarbiya mazmuni va uning jismoniy tarbiya va sportdagi ahamiyati

Tarbiyaning sportchi shaxsni rivojlanishi bilan birligi va bog'liqligi, faoliyat va munosabatni namoyon bo'lishi sportchining fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosi, tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'siri, o'zaro munosabatlar hamda faol faoliyat o'rtasidagi bog'lanish. Yosh sportchilarni tarbiyalash, qayta tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash. Jismoniy tarbiya va sport faoliyatida tarbiya jarayonining xususiyatlari, sportchilarni g'oyaviy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, sportchini irodaviy sifatlarini shakllantirishda tarbiyaning o'rni.

### 7- mavzu. Jismoniy tarbiya va sport sohasida qo'Ilaniladigan tarbiya metodlari

Sport faoliyatida tarbiya jarayonini tashkillashtirishning shakllari va vositalari. Jismoniy tarbiya va sport sohasida qo'Ilaniladigan tarbiya metodlari. Tarbiya metodlari haqida tushuncha va ularning klassifikatsiyasi. Sport faoliyatida tarbiya tamoyillari. Jismoniy faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor normalarini shakllantirish, pedagogik talab, o'rgatish, mashq qilish faoliyati, tarbiyalovchi vaziyatlar hamda kun tartibi asosida mashq qilish.

Axloq normasini tashkil qilishda ijtimoiy tarbiya va sportning ahamiyati. Jismoniy tarbiya va sport sohasida tarbiya jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan talablar. Sport faoliyatida tarbiya vositalari.

### 8-mavzu. Jismoniy tarbiya va sport ta'limini loyihalashtirish va boshqarish

Jismoniy tarbiya va sport ta'limini loyihalashtirish, jismoniy tarbiya va sportning dolzarb muammolarini hal etishda dasturiy - loyihaviy yondashuvning imkoniyatlari hamda loyihalashtirishning metodologik jihatlari. Sport faoliyatini boshqarishning funksiyalari va tarkibiy qismlari: gnostik, loyihalashtiruvchi, kommunikativ, tashkiliy. Boshqaruv funksiyalari: rahbarlik, rejalashtirish, nazorat, korreksiya, axborot xizmat ko'rsatish, tashkillashtirish, motivasiya.

Jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishni loyhalashtirishning xususiy metodikasi.

### 9-mavzu. Jismoniy tarbiya va sport sohasida pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar

Innovatsiya haqida tushuncha. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi innovatsiyalar.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida tarbiyaviy ishlar mazmuni va metodikasi. Tarbiyaviy ishlar mazmuni mohiyati. Tarbiyaviy ishlar jarayonida qo'Ilaniladigan metodikalar ahamiyati.

Mashg'ulotlarni tashkil etishda ko'rgazmali, nazariy hamda amaliy, tushuntirish- illyustrativ, reproduktiv, muammoli, evristik va zamonaviy ta'lim texnologiyalar. Sport faoliyatida ilmiy tadqiqot - evristik o'yinlar orqali ijodiy faoliyat va tasawurni rivojlantirish. Tasavvur tushunchasi sport faoliyatini tizimlashtiruvchi komponent sifatida.

## 10-mavzu. Jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqaruv uslublari

Jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqaruv uslublari. Avtoretar, liberal, demokratik boshqaruv uslublari va ularning sport faoliyatidagi ahamiyati. Boshqaruv uslublariga qo'yiladigan talablar. Boshqaruv nazariyasi. Boshqaruv pedagogika va etikasi haqida tushuncha va boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari. Sport faoliyatida boshqaruvni ilmiy-asosda tashkil etishning pedagogik etikaviy talablari va ularni rivojlantirish omillari.

## 11-mavzu. Sportchi shaxsni shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning o'ziga xos spesifik ahamiyati

Shaxs shakllanishida jismoniy tarbiya va sport faoliyat turlarining tutgan o'rni, jismoniy tarbiya va uning asosiy vazifalari. Shaxs rivojlanishida jismoniy tarbiya vositalarini qoilanilishi. Shaxs shakllanishi va hayot faoliyatida sport spesifik (o'ziga xos) muhit sifatida.

Sportning tuzilishi, mazmuni va shaxsni rivojlantiruvchi imkoniyatlari, sport faoliyati motivlarining pedagogik - psixologik tasnifi. Sport ekspremental faoliyat turi sifatida. Sport faoliyati motivlarining tasnifi, sport motivlarini tarbiya jarayonidagi ahamiyati. Turli sport turlarida shaxsga bo'lgan rivojlantiruvchi ta'sirlarning spesifikasi (o'ziga xosligi).

"Trener — sportchi" munosabatlari tizimining psixologik-pedagogik tuzilishi va mazmuni.

# 3-Modul. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik faoliyaitning asosiy omiliari

## 12-mavzu. Shaxsni tarbiyalash va shakllanishiga sport jamoasining ta'siri.

Jamoa haqida umumiy tushuncha, jamoaning ko'rinishlari va turlari. Jamoani shakllanish bosqichlari. Shaxsni sport jamoasida tarbiyalash.

Sport jamoasining o'ziga xos xususiyatlari, boshlang'ich jamoaning xususiyatlari, sport jamoasiga ko'ngilli bo'lib kirish, sport jamoasining

shakllanish dinamikasi, sportchida sportga xos spesifik xarakter xususiyatlarni shakllantirishning imkoniyatlari, sportchiga yuksak talablar qo'yish shartlari.

Sport jamoasini jipsligi va uyushqoqligi, sport jamoasining uyushtirishning asosiy vositalari va uslubiy asoslari. Sport jamoasi a'zolari o'rtasidagi o'zaro xarakatlarini va xamkorligini ananaviy shakllari. Jamoa hayotiga monand ijodiy an'analarni to'plash va rivojlantirish sport jamoasini shakllanishida muhim yo'nalish sifatida.

### 13-mavzu. Sport sohasidagi kreativlik (ijodkorlik).

Ijodkorlik tushunchasi va uning sport faoliyatda o'rni. Jismoniy tarbiya va sport faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning mahorati va ijodkorligi. Ijodkorlikni shakllantirish usullari. Ustoz-murabbiylarning kreativlik sifatlari. Sportchilarlarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari va shartlari. Kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy omillar. Kreativlikni ifodalovchi belgilar.

### 14-mavzu. Jismoniy tarbiya va sport sohasida samarali pedagogik faoliyatning asosiy omiliari va shartlari

Jismoniy tarbiya va sport sohasida samarali pedagogik faoliyatning asosiy omil i va shartlari. Sport faoliyatga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omilar. Sport faoliyatining samaradorligi shartlari. Jismoniy tarbiya va sport sohasida murabbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. Jismoniy tarbiya va sport sohasida murabbiy ishining o'ziga xos xususiyatlari. Jismoniy tarbiya va sport sohasida murabbiyning jismoniy imkoniyatlari va kreativligi.

### 15-mavzu. Sportda huquqiy ta'lim.

Sportchining huquqiy ta'limi. Sportchining huquqiy tarbiyasi. Huquqiy rivojlanish. Sport faoliyatidagi qonunbuzarliklarninng asosiy sabablari. Trenerning huquqiy ta'limi. Trenerlik faoliyatining asosiy maqsadi va vazifalari. Trenerlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarning majburiyatlari. Trenerlik faoliyatini
tashkil etish.

### 16-mavzu. Sportchi shaxsiyatiga pedagogik ta'sir uslublari va sport mashg'ulotlarida pedagogik tamoyillar qonuniyati.

Sportchi shaxsiyatiga pedagogik ta'sir omillari. Mashg'ulotlarni tashkil etish shakllari. Sport mashg'ulotlarida pedagogik tamoyillar qonuniyati. Jismoniy tarbiyada o'rgatish tizimi. O'quv rejasi bo'yicha mashg'ulotlar tizimi. Yillik o'quv reja jadvali. Oylik ish rejasi. dars rejasi bayoni.

### 17-mavzu. Jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish.

Ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishda qo'Ilaniladigan huquqiy me'yoriy hujjatlar. Jismoniy tarbiyada rejalashtirish va nazorat ishlari. Ustoz-trenerning vazifalari. Sport mashqlarini o'rganish jarayonining asosiy komponentlari. Jismoniy tarbiya jarayonini nazorat qilish turlari.

### 18-mavzu. Yosh davrlarda jismoniy tarbiyasi va uning roli.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy hamda aqliy imkoniyatlari Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan jismoniy tarbiya vazifalarini amalga oshirish shartlari. Jismoniy yuklamalarni amalga oshirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan jismoniy tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan umumiy vazifalar. Sog'lomlashtirish va jismoniy rivojlanishga ta'sir qiluvchi gigienik omillar.

Kichik maktab yoshi, o'smir va o'spirinlik yoshi va bu davrda yuzaga keladigan psixofiziologik o'zgarishlar. Kichik maktab yoshi, o'smir va o'spirinlik yoshi davrida amalga oshirish lozim bo'lgan asosiy vazifalar va jismoniy yuklamalar.

## IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha tavsiya qilingan didaktik talablarni maqsad vavazifalarini aniqlab ularni guruh a'zolarida qo'llaydilar. Talabalar mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rib, olib borgan izlanishlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini dars vaqtida himoya qiladilar.

Seminar mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasining predmeti.
2. Shaxs shakillanishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati
3. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari faoliyatining pedagogik jihatlari
4. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ta'lim tamoyillari
5. Jismoniy tarbiya va sport sohasida qo'Ilaniladigan ta'lim metodlari
6. Tarbiya mazmuni va uning jismoniy tarbiya va sportdagi ahamiyati
7. Jismoniy tarbiya va sport sohasida qo'Ilaniladigan tarbiya metodlari
8. Jismoniy tarbiya va sport ta'Iimini loyihalashtirish va boshqarish
9. Jismoniy tarbiya va sport sohasida pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar
10. Jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqaruv uslublari
11. Sportchi shaxsni shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning o'ziga xos spesifik ahamiyati
12. Shaxsni tarbiyalash va shakllanishiga sport jamoasining ta'siri.
13. Sport sohasidagi kreativlik (ijodkorlik).
14. Jismoniy tarbiya va sport sohasida samarali pedagogik faoliyatning asosiy omiliari va shartlari
15. Sportda huquqiy ta'lim.

16. Sportchi shaxsiyatiga pedagogik ta'sir uslublari va sport mashg'ulotlarida pedagogik tamoyillar qonuniyati.
17. Jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish.
18. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi.
19. Kichik maktab yoshi, o'smir va o'spirin yoshlarda jismoniy tarbiyaning roli.

## V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

"Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi" fani bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan vazifalarni bajaradilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu $ bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va
baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

"Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi" fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi mavzular ko'rinishida shakllantirilgan.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qoilanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;

- ma'lum mutaxassisligiga taalluqli emperik bilimlarni referatlar shaklida namoyon qilish.

Shuningdek, mustaqil ishning natijalari talabalarning kafedraga topshirgan konspektlari, eksprimental tadqiqot bayonnomalari va referatlar hisoblanadi. Talabalar mustaqil ta'lim natijasida referat bilan konspektning farqiga, konspektning tezisdan farqiga, kitoblarga annotasiya yoki resenziyani qanday tuzishni, kitoblardan sitata olish qoidalarini yaqindan o'rganadilar.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. "Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi" fanining mazmuni, asosiy kategoriyalari va metodologik asoslari.
2. Prezident asarlarida ta'lim - tarbiya va jismoniy tarbiyaga oid g'oyalar taraqqiyoti.
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" va "Kadrlar tayyorlash Milliy dastur"i, hamda "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi Qonun"da pedagogik jarayonning aks ettirilishi.
4. Ilmiy tadqiqot ishlarining samarali natijalarini amaliyotda qo'llash.
5. Sharqda ilk Uyg'onish davri (IX-XII asrlar) O'rta Osiyoda (XIV-XX asrlar) ta'lim - tarbiya va pedagogik fikrlar rivojlanishi.
6. Jismoniy tarbiya va sport ta'limining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari.
7. Sport jamoasini pedagogik boshqarish uslublari.
8. Jismoniy tarbiyaning umumiy metodlari konsepsiyasi.
9. Sport pedagogikasi novatorlari.
10. O'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning pedagogik shartlari
11. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi faoliyatida nizo psixologo-pedagogik muammo sifatida.
12. Jismoniy tarbiya darslarida tashkillashtirilgan ta'lim shakllari.
13. Sportchining faol turmush tarzi.
14. Insonning rivojlanish omiliari va uning shaxs sifatida tarkib topishi jismoniy va psixik rivojlanishning birligi va o'ziga xosligi.
15. Sport faoliyati jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olish va yoshni davrlarga bo'linishi: ilk bolalik davri, maktabgacha tarbiya yoshi, kichik maktab yoshi, o'smirlik, o'spirinlik davrlarini o'ziga xosligi.
16. Rivojlanishning individual xususiyatlari va uni jismoniy tarbiya va sport faoliyatida hisobga olish.

17.0'qitish jarayonining mohiyati, vazifalari, didaktika va xususiy metodikalar haqida tushuncha.

18. Jismoniy tarbiya va sportga doir fanlarda sport turlariga o'rgatish metodikalari.
19. Jismoniy mashqlarga o'rgatishda pedagogik - psixologik jihatlarini hisobga olish.
20. Asosiy didaktik tushunchalar va jismoniy tarbiya darslarida ularning ahamiyati.
21. Jismoniy tarbiya darslarida bilim, ko'nikma malakalarni amalda qo'llashga o'rgatish pedagogik asoslari.

22. Jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga oid mashg'ulotlarni o'tkazishda o'qitish tamoyillarining nazariy va amaliy ahamiyati.
23. O'qitish nazariyasida metod va metodik usul tushunchasi va uning jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga doir mashqlarni bajarishdagi ahamiyati.
24. Jismoniy tarbiya darslarida o'qitish metodlarini bilim manbai bo'yicha tasniflanishi va bilish boqichlari.
25. Jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga oid fanlami o'qitishda ta'lim metodlarini qo'llanilishi.
26. Tarbiya usullaridan foydalanishda sportchi laming yosh va individuval sifatlarini xisobga olish.
27. Sportchi shaxsni shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning o'ziga xos spesifik ahamiyati.
28. Shaxs shakllanishida jismoniy tarbiya va sport faoliyat turlarining tutgan o'rni.
29. Shaxs shakllanishi va hayot faoliyatida sport spesifik (o'ziga xos) muhit sifatida.
30. Sportning tuzilishi, mazmuni va shaxsni rivojlantiruvchi imkoniyatlari.
31. "Trener - sportchi" munosabatlari tizimining psixologik-pedagogik tuzilishi va mazmuni.
32. Sportchi shaxsini shakllanishiga tarbiya metodlarining ta'siri.
33. Yosh sportchilarni tarbiyalashning individual, guruhiy va jamoaviy shakllarini pedagogik - psixologik asoslari.
34. Sport jamoasini jipsligi va uni uyushtirishning asosiy vositalari va uslubiy asoslari.
35. Murabbiy faoliyati tizimida pedagogik tahlil.
36. Murabbiy-pedagog faoliyati tizimida ijodiy izlanish.
37. Sport faoliyatida yuzaga keladigan nizolar ularning tasnifi, kelib chiqish sabablari, shart - sharoitlari va ularni oldini olish pedagogik - psixologik yo'llari.
38. Jamoa haqida tushuncha, uning turlari va shakllanish bosqichlari.
39. Sport jamoasining o'ziga xosligi va sportchida sportga xos spesifik xarakter xususiyatlarni shakllantirishdagi o'rni.
40. Sport jamoasini jipsligi va uni uyushtirishning asosiy vositalari va uslubiy asoslari. Mustaqil ish referatlari yozma va elektron shaklda topshiriladi.

## VI. Asosiy va qo'shimcha o'q'uv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

### Asosiy adabiyotlar


1. R. Mavlonova, O. To'raeva, Q.Holiqberdiev "Pedagogika". -T. O'qituvchi 2001 y.
2. Axmedova M.Ye. "Pedagogika nazariyasi va tarixi" o'quv qo'l. -T. Tafakkur-bo'stoni 2011 y.
3. N.G'aybullaev, R.Yodgorov, R.Mamatqulova, Q.Toshmurodova. "Pedagogika". -T. 2000 y.
4. Neverkovich S.D. Osnoviy obucheniya i vospitaniya: Uchebnoe posobiy dlya studentov / Neverkovich S.D., Xozyainov G.I., Andriadi I.P. - M.: RIO RGLFK, 1997.

5. Neverkovich S.D. Pedagogika fizicheskoy kulturi sporta: uchebnik / S.D. Neverkovich - M.: Fizicheskaya kultura, 2006.
6. Sidorov A. A. Pedagogika: Uchebnik dlya studentov, aspirantov, prepodavateley i trenerov po dissipline «Fizicheskaya kultura» / Sidorov A.A., Proxorova M.V., Sinyuxin B.D. - SPb.: Terra-sport, 2000.

## Qo'shimcha adabiyotlar

7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimiz mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr / Sh.M.Mirziyoev. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 48 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boiishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkasasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 104 b.
10. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutchi / Sh.M.Mirziyoev. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 32 b.
11. Ye.Yu. Agzamova, D.N. Arzikulov. Pedagogika.T. Akademiya MVD. R.Uz. 2014. 247 s.
12. Pidkasistiy P.I. taxriri ostida «Pedagogika» 2002 y. 422 b.
13. Podlasiy I.P. «Pedagogika» M. 2002 y. 447 b.
14. Rean A.A., Karpushin B.A. Pedagogicheskie osnoviy vospitatelnoy deyatelnosti pri zanyatiyax fizicheskoy kulturoy i sportom / B.A. Karpushin B.A.- SPb., 2003.
15. Stolyarov V.I. Sotsiologiya fizicheskoy kulturi (wedenie v problematiku i novaya konsepsiya): Nauchno-metodicheskoe posobie dlya institutov i akademiy fizicheskoy kulturi. - M.: Gumanitarniy sentr «SpART», 2002.
16. Bordovskaya N.V., Rozum S.I. «Psixologiya i pedagogika» Moskva, Xarkov, Minsk 2000 y.
17. Pedagogika "Ta'lim nazariyasi" O'zDJTI. T. 2009.
18. Pedagogika "Tarbiya nazariyasi" O'zDJTI. T. 2009.
19. " Jismoniy tarbiya pedagogik texnologiyalari" o'quv qo'l. T. O'zDJTI 2009
20. Askarova O.M. "Pedagogika" darslik T. 2008
21. Pedagogika fizicheskoy kulturi i sporta: uchebnik /pod.red. S.D. Neverkovicha. - Fizichesskaya kultura, 2006 y. 528 s.
22. Gorbunov G.D. Psixopedagogika sporta: ucheb. Posobiye / G.D. Gorbunov. - 4 ye izd., ispr. Idop. - M: Sovetskiy sport,2012, - 312 s.

23. Bordovskaya N.V., Rean A.A. Pedagogika: Uchebnoye posobiye. - Spb.: Piter. 2008.-304 s.
24. Proxorova M.V., Sidorov A.A., Sinyuxin B.D., Semenov A.G. Pedagogika fizicheskoy kulturi: Uchebnik M.: Iz-vo . "Put": TID "Alyans", 2006. - 288 s.
25. Karpushin B.A. Pedagogicheskie osnovi vospitatelnoy deyatelnosti pri zanyatiyax fizicheskoy kulturoy i sportom / B.A. Karpushin B.A.- SPb., 2003.
26. Stolyarov V.I. Sotsiologiya fizicheskoy kulturi (vvedenie v problematiku i novaya konsepsiya): Nauchno-metodicheskoe posobie dlya institutov i akademiy fizicheskoy kulturi. - M.: Gumanitarniy sentr «Spart», 2002.

Internet saytlari

27. www. ziyonet.uz
28. www.childpsy.ru
29. www.edu.uz
30. www.fiogiston.ru
31. www.pedagog.uz
32. www.tdpu.uz